

**ANDIJON SHAHRINING YO'NALISHLARI UCHUN AVTOBUSLARNING
SIG'IMI VA HARAKATLANISH INTERVALINI MAQBULLASHTIRISH**

Nasirov Ilxam Zakirovich

*Andijon mashinasozlik instituti "Transport logistikasi
kafedrası professori, t.f.n., Email: nosirov-ilhom59@mail.ru,*

Tel. +998934428025

Muhammadjonov Azamatjon Ulug'bek o'gli,

*Andijon mashinasozlik instituti talabasi
muhammadjonovazamatO@gmail.com,*

+998 947341448

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Andijon shahridagi mavjud avtobuslar yo'nalishlarining tahlili, ulardagi harakatlanish intervali, avtobuslarning sig'imi bo'yicha kamchiliklar va ularga yechimlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: sifat, rejalashtirish, interval, resurs, avtobus, shahar transporti, xizmat ko'rsatish, xavfsizlik.

**ОПТИМИЗАЦИЯ ПРОПУСКНОЙ СПОСОБНОСТИ И ИНТЕРВАЛОВ
ДВИЖЕНИЯ АВТОБУСОВ ДЛЯ МАРШРУТОВ ГОРОДА АНДИЖАНА**

Насыров Ильхам Закирович

Андижанский машиностроительный институт " профессор кафедры
транспортной логистики, т.ф.н., Email: nosirov-ilhom59@mail.ru, тел.
+998934428025

Мухамеджанов Азаматжон Улугбек угли,

Студент Андижанского машиностроительного института
muhammadjonovazamatO@gmail.com, +998 947341448

Аннотация

В данной статье представлен анализ существующих автобусных маршрутов в городе Андижане, интервалы движения по ним, пробелы в пропускной способности автобусов и их решения.

Ключевые слова: Качество, планирование, интервал, ресурс, автобус, городской транспорт, сервис, безопасность.

**OPTIMIZATION OF BUS CAPACITY AND INTERVALS FOR
THE ROUTES OF THE CITY OF ANDIJAN**

Nasirov Ilham Zakirovich

Professor of the Department of Transport Logistics *Andijan Machine-Building
Institute*,

Email: nosirov-ilhom59@mail.ru , tel. +998934428025

Mukhammadjanov Azamatjon Ulugbek ugli,

Student of the *Andijan Machine-Building Institute*
muhammadjonovazamatO@gmail.com, +998 947341448

Annotation: This article presents an analysis of the existing bus routes in the city of Andijan, the intervals of movement along them, gaps in bus capacity and their solutions.

Keywords: Quality, planning, interval, resource, bus, urban transport, service, safety.

Urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi, megapolis shaharlarning ko'payishi, aholi sonining o'sishi natijasida jamoat transportiga bo'lgan talab va ehtiyoj yil sayin oshib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, jamoat transporti xizmati sifatini oshirish, madaniyatini yuksaltirish, uni bugungi davr va sharoitga moslashtirishni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda ham, hozirgi o'sib borayotgan aholi sonidan kelib chiqqan holda, jamoat transportini sifatini yanada oshirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda [1].

Jamoat transportini moliyalashtirishning yangi tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida:

Shahar avtobus yo'nalishlarini brutto-shartnoma asosida tashuvchilarga biriktirish yuzasidan tenderlarning tender hujjatlari va texnik topshiriqlari O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitar korxonasi tomonidan ekspertizadan o'tkazilmaydi [2].

- "bosib o'tilgan yo'l" mezon — tashuvchining yo'nalish bo'ylab tashish jarayonida amalda bosib o'tgan masofasi o'lchovi ko'rsatkichi;

- brutto-shartnoma — yo'nalishlarda cheklangan tariflarda yo'lovchi tashish xizmatlari uchun "bosib o'tilgan yo'l" va "sifat" mezonlaridan kelib chiqqan holda hisob-kitob qilishni nazarda tutuvchi vakolatli organ va tashuvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma;

- cheklangan tarif — shahar yo'lovchi transportida yo'lovchilar va bagaj tashish uchun mahalliy hokimiyat vakillik organlari tomonidan belgilanadigan yo'l haqining cheklangan miqdori [3-6].

Yo'lovchilarni muntazam tashishlarni amalga oshiruvchi tashuvchilarga va bunday tashishlarni amalga oshirishga qo'yiladigan talablar

"Yo'lovchilarni muntazam tashishlar Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrda 482-son qarori bilan tasdiqlangan Avtomobil transportida yo'lovchilar va bagajni tashish [qoidalariga](#) muvofiq amalga oshiriladi".

Avtobuslarning belgilangan harakat jadvalidan va yo'nalish sxemasidan chetga chiqishiga faqat avtomobil yo'llarida va ko'chalarda vaqtinchalik cheklovlar kiritilgan yoki avtotransport vositalari harakati to'xtatilgan davrda yo'l qo'yiladi [7,8].

Avtomobil yo'llarida va ko'chalarda vaqtinchalik cheklovlar kiritilgan yoki avtotransport vositalari harakati to'xtatilgan davrda avtobuslar harakat jadvali va yo'nalish sxemasiga o'zgartirishlar vakolatli organ tomonidan kiritiladi va tashuvchilarga yetkaziladi.

(O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 16-fevraldagi PQ-59-son qarori)ida shahar yo'lovchi transportlarining imtiyozli harakatlanishini rivojlantirish va aholiga ko'rsatilayotgan transport xizmati sifatini oshirish borasida bir qator hal qilinishi kerak

bo'lgan masalalar turibdi [9]. Bular:

- bugungi kunda shahar yo'lovchi transport vositalarining shaxsiy transport vositalariga nisbatan raqobatbardoshligi bir oz pasaygan. Buning sababi shundaki, shaxsiy transport vositalarining jamoat transport vositalariga qaraganda tezligining yuqoriligi, yo'lovchilar uchun qulayligi, qatnov muntazamligi, tashish tan narxining yo'lovchilarga ma'qulligi kabi sifatlarining ustunligi tufayli tanlaydilar;

- kunning tig'iz paytlarida, jamoat transport vositalarining ushlanib qolishlari, ayniqsa, avtobuslarning ushlanib qolishlari vaqtining ortishi, buning natijasida harakat tezligining pasayishi, qatnovlar muntazamligining buzilishlari natijasida yo'lovchilarning kutib qolishlari oqibatida vaqt yo'qotishlari yuqoridagi sabablarga olib kelmoqda. Bularning barchasi jamoat transport vositalarining iqtisodiy ko'rsatkichlariga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi;

- yo'llarda tegishli yo'l belgilari va yo'l belgi chiziqlari bo'lishiga qaramay, transport vositalari serqatnov bo'lgan shahar markaziy ko'chalaridagi qatnov qismining birinchi bo'laki, asosan jamoat transportlari harakatlanadigan bo'lak hisoblanadi, shuningdek, avtobuslarning kirish va chiqish joylari transport vositalarining vaqtinchalik turar joylariga aylanib qolgan [10-12].

Yuqorida keltirilgan, transport vositalarining xavfsiz harakatlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan muammolarni hal qilish, transport vositalarining xavfsiz harakatlanishini ta'minlash va yo'l-transport hodisalarining oldini olish borasida Andijon shahar Ichki ishlar boshqarmasi yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi (IIB YHXB), Andijon viloyat transport boshqarmasi hamda barcha manfaatdor bo'lgan tashkilotlar bilan birgalikda chora-tadbirlar ishlab chiqqan holda hal etish albatta o'z natijasini ko'rsatadi [13-16].

Bulardan tashqari shahar ichi yo'nalishlarida qatnovchi avtobuslar sig'imi bilan bir qator muammolar mavjud. Bu muammolarga quyidagicha yechim topish mumkin. Shaharda qatnovchi avtobuslar tuzilishi iloji boricha yo'lovchilarning o'tirib va turib ketishiga hamda tushishiga, tez-tez to'xtab, katta tezlanish bilan harakatlanishiga moslangan bo'lishi kerak. Shahar ichi yo'nalishlarida qatnovchi yo'lovchilar o'rtacha qatnov masofasi qisqa va sutka davomida yo'lovchilar oqimining o'zgaruvchan bo'lishi shahar ichi avtobuslarining kuzov saloni rejasi kam o'rindiqli, o'tish joylari, avtobusning old va orqa tomonida turib ketishga mo'ljallangan sath (maydoncha) keng bo'lishini taqozo etadi. Salonni aytilgandek, rejalashtirish bilan yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini deyarli kamaytirmagan holda avtobus sig'imini oshiradi. Chiqish va tushish uchun eshiklari keng bo'lishi, yo'lovchilarning chiqish va tushish uchun zarur bo'lgan to'xtab turish vaqtini kamaytirish bilan bir qatorda, avtobuslar ish unumini ham oshiradi [17-20].

Avtobuslar yo'nalishga chiqishdan oldin o'zining kunlik harakat rejim (grafik)lari bo'yicha yo'nalishlarga chiqadi va avtobuslar oraliq intervali ham harakat rejim (grafik)ga bog'liq, yo'nalishni harakat rejim (grafik)ni oraliq intervalini yo'lovchilarga sifatli va mazmunli xizmat ko'rsatishlariga qarab baholaymiz. Xususan, Andijon shahri yo'nalishlaridagi deyarli barcha avtobuslarning oraliq intervallari talab doirasidan bir oz chetlashgan. Bunga quyidagi sabablarni keltirishimiz mumkin:

- aholi sonining ko'pligi
- avtobuslar sonining kamligi

-jamoat transporti turlarining kamligi tufayli avtobuslar harakatiga tushadigan bosim

- bekatlar sonining yetarli emasligi

- yo'nalishlar masofasi uzoqligi [21,22].

Yuqorida keltirilgan muammolar yuzasidan Andijon shahrida, hozirgi davrda Andijon viloyat transport boshqarmasi hamda Andijon mashinasozlik instituti bilan birgalikda ko'plab tahlillar va kuzatuvlar amalga oshirildi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, shaharda bekatlar va avtobuslar soni yetarli darajaga olib chiqilsa, aholiga va shahrimiz mehmonlariga qulay, kutishga uzoq vaqt talab qilmaydigan va albatta tezkor transport xizmatini ko'rsata olamiz. Andijon shahri jamoat transportini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan loyiha bunga yaqqol misol bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. NASIROV ILXAM ZAKIROVICH, NURDINOV MURODALI ALIJONOVICH, GAFFAROV MUKHAMMADZOKIR TOSHEMIROVICH, XAYDAROV MURODJON AKBARALIYEVICH, TO'RABOYEV HOLMUROD RUSTAMJON O'G'LI. CONDUCTING LESSONS IN INVENTIVE METHODS// The Seybold Report- Seybold Publication, Box 644, 428 E. Baltimor Ave. Media, PA 19063. 227-234 p. <https://www.seyboldreport.org/issues>

2. Xakimov Mavlonbek Solijon o'g'li, & Nasirov Ilxam Zakirovich. (2024). AVTOBUS YO'NALISHLARINING MAQBUL VARIANTINI TANLASH. *Journal of New Century Innovations*, 47(1), 106–113. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/11756>

3. To'raboyev Holmorod Rustamjon o'g'li, & Nasirov Ilxam Zakirovich. (2024). JAMOAT TRANSPORTI USTUVORLIGINI TA'MINLASHNING MAQBUL TADBIRLARI. *Journal of New Century Innovations*, 47(1), 114–122. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/11757>

4. Gaffarov Makhammatzokir Toshtemirovich , Nasirov Ilham Zakirovich , Sobirova Tursunoy Abdipatto kizi , Hakimov Mavlonbek Solijon ugli. (2023). Recovery Of Fines From Drivers Of Foreign Vehicles. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3589–3591. <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.446>.

5. Nasirov Ilkham Zakirovich- Ph.D., Gaffarov Mukhammadzokir Toshtemirovich , Doctoral Student. (2023). Consequences Of Complete And Undercombustion Of Fuel. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3597–3603. <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.448>.

6. Malokhatkhon Karimovna KOSIMOVA, Davlatkhon Karimovna MUQIMOVA, Ilham Zakirovich NASIROV, Bahodirjon Zakirovich NOSIROV. WELDING MATERIALS USED IN THE RECOVERY OF CORRODED DETAILS IN THE CONTACT WELDING METHOD// *Eur. Chem. Bull.* 2023, 12(5), 1657-1662. DOI: <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.446>. <https://eurchembull.com/uploads/paper/5aa8cc7f80ab74316113aca9aab7cb42.pdf>.

7. [Nasirov Ilham Zakirovich, Nurdinov Murodali Alijonovich, Nosirov Bahodirjon, Kuzibolaeva Dilnoza Tukhtasinovna, Obidzhonova Gulizebo Shukhratbek kizi. EFFECT OF SYNTHESIS GAS SUPPLY ON ENGINE PERFORMANCE// MSW MANAGEMENT -Multidisciplinary, Scientific Work and Management Journal.](https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.446)

ISSN: 1053-7899, Vol. 33 Issue 2, December – 2023, Pages: 125-132.
<https://mswmanagementj.com/index.php/home/article/view/50>

8. EFFECT OF SYNTHESIS GAS SUPPLY ON ENGINE PERFORMANCE. (2024). *Multidisciplinary, Scientific Work and Management Journal*, 33(2), 125-132. <https://mswmanagementj.com/index.php/home/article/view/50>.

9. Насиров, И. З., & Гаффаров, М. Т. (2021). ЭЛЕКТРОННАЯ СИСТЕМА ПЛАТЕЖЕЙ В АВТОБУСАХ. *Естественнонаучный журнал «Точная наука*, 117, 2-5.

10. Шодмонов С. А., G'ulomov F., 3 STEPS TO TRANSPORT DANGEROUS GOODS IN UZBEKISTAN *Естественнонаучный журнал «Точная наука» Россия* 2021 06 декабря 2021 г. Pages: 14-16. www.t-nauka.ru.

11. Abduvayitovich, S. S., Jaloliddin o'g'li, A. S., & Axmadjon o'g'li, X. A. (2022). RESPUBLIKAMIZDA YUKLARNI TASHISHDA LOGISTIK XIZMATLARNI QO'SHNI RESPUBLIKALARDAN OLIV CHIQISH VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI.

12. Shodmonov, S. A. (2022). GLOBAL ELEKTR AVTOMOBILLARINI ISHLAB CHIQISH VA ELEKTR MASHINA ASOSLARI.

13. Shodmonov, S. A., & qizi Turg'unova, G. A. (2022). Railway Transport, its Specific Characteristics and Main Indicators. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 12, 61-66.

14. Шодмонов, С. А. (2022). ОЦЕНКА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДОРОДСОДЕРЖАЩИХ СОСТАВНЫХ ТОПЛИВ В ДВИГАТЕЛЯХ ВНУТРЕННЕГО СГОРАНИЯ.

15. Ahmadjon o'g'li, X. A. (2023). LOGISTIKADA SERVIS TIZIMINI TASHKIL QILISH. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 2(2), 176-182.

16. A.Teshaboyev, S.Z.Zaynabidinov, Sh.Ermatov. “Qattiq jism fizikasi”. <<Moliya>> Toshkent 2001y.

17. S.Z.Zaynabidinov, R.Aliyev, B.Avchiboyev, X.Mansurov, “Способ изготовления кремниевых платин для солнечных элементов”. Заявка на патент №20030030 от 15.01.2003.

18. R.Aliyev, S.Z.Zaynabidinov, “Применение поликристаллического кремния в полупроводниковой микроэлектронике и солнечной энергетике”, *Geliotexnika*, 1998. №2, 75-81-betlar.

19. S.Z.Zaynabidinov, X.Akramov. “Yarimo'tkazgichlar parametrlarini aniqlash usullari”. Toshkent. <<O'zbekiston>>, 2001y.

20. A.Teshboyev, S.Zaynobiddinov, E. Musayev, “Yarim o'tkazgichlar va yarim o'tkazgichli asboblarni texnologiyasi”, O'quv qo'llanma, “O'AJBNT” markazi, 2005 yil 392 – bet.

21. A.Teshboyev, S.Zaynobiddinov, I. Karimov, N. Raxmov, R. Aliyev. “Yarim o'tkazgichli asboblarni fizikasi”, “Hayot” nashriyoti, Andijon 2002 yil.

22. S.Zaynobiddinov, A.Teshboyev, “Yarim o'tkazgichlar fizikasi”, Toshkent, “O'qituvch” nashriyoti, 1999 yil, 224-bet.